

## TA'LIMIY VA TARBIYAVIY KOMPITENSIYALARINI TARBIYALANUVCHILARDА XORIJ TAJRIBALARI ASOSIDA SHAKLLANTIRISH

Xusanova Erkinoy Ergashovna

Andijon viloyati Shaxrixon tumani 3-sон

DMTT direktori

**Annotation:** Ta'limiylar va tarbiyaviy kompitensiyalarni tarbiyalanuvchilarda xorij tajribalari asosida shakllantrish ta'limiylar faoliyatlarini samarali tashki qilish haqida aytib o'tilgan.

**Annotation:** Было упомянуто о формировании учебно-воспитательных компетенций у студентов на основе зарубежного опыта и эффективной организации учебной деятельности.

**Abstract:** Mention was made of the formation of educational and upbringing competencies in students based on foreign experience and the effective organization of educational activities.

**Kalit so'zlar:** tarbiyalanuvchi, pedagog, ta'lim, tarbiya, kompitensiya, koppitensiya turlari, ta'lim jarayonlar.

**Ключевые слова:** обучаемый, педагог, образование, обучение, компетентность, виды кокомпетентности, образовательные процессы.

**Key words:** trainee, pedagogue, education, training, competence, types of co-competence, educational processes.

Kompetensiya nima? Kompetensiya (lotincha “competo” so‘zidan olingan bo‘lib, “erishaman, muvofiqman, mos kelaman” ma’nolarini beradi) — kishi egallagan muayyan bilim, ko‘nikma, malakalar majmuasini anglatadi. Kompetensiya tushunchasi nisbatan yaqindan boshlab, 1960-yillarning oxiri va 1970-yillarning boshlaridan keng qo‘llanila boshlandi.

**Kompetensiya** – ma’lum bir sohada samarali faoliyat olib borish uchun zarur bo‘lgan mutaxassisning ta’limiy tayyorgarligiga qo‘yilgan talabdir. U davlat ixtiyorida bo‘lgan, oldindan belgilangan ijtimoiy talab bo‘lib, u o‘quvchi (ishchi)ning muayyan sohada samarali faoliyat ko‘rsatishi uchun zarur bo‘lgan ta’limiy (professional) tayyorgarligiga nisbatan qo‘yiladi. Kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim – o‘quvchilarning egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarini o‘z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo‘llay olish imkoniyatidir. Kompetensiaviy yondashuvga asoslangan ta’lim o‘quvchilarda mustaqillik, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lish, tashabbuskorlik, mediaresurslar va axborot-kommunikatsiya

texnologiyalaridan o‘z faoliyatida oqilona foydalana olish, ongli ravishda kasb-hunar tanlash, sog‘lom raqobat hamda umummadaniy ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bundan tashqari, ta’limda har bir o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida o‘quvchilarda, shu fanning o‘ziga xosligi, mazmunidan kelib chiqqan holda, sohaga tegishli xususiy kompetensiyalar ham shakllantiriladi. Kompetensiyali yondashuv, inson faoliyatida har tomonlama kompetenlilikni shakllantirish hozirgi zamon jamiyati va ta’limining asosiy sharti hisoblanadi. Bu talab o‘qituvchi-pedagoglar faoliyatiga ham bevosita daxldordir. Bugungi kunda dunyo ta’limini yangilashning asosiy yo‘nalishi ta’lim jarayonida faoliyatli yondashuv orqali dunyoni, hayotni, kasbiy faoliyatni yaxlit tizimli ko‘ra olish, unda tizimli faoliyat ko‘rsatish, yangi-yangi muammo va topshiriqlarni hal eta olish tajribasini shakllantirishdan iboratdir.

### Kompetensiya turlari, kvalifikasiya va kompetensiya

Pedagogning kasbiy komponentensiyasi turlari quyidagilardan iborat:

- Kasbiy.
- Shaxsiy.
- Umuminsoniy.
- Ma’daniy.
- Maxsus.

### Kasbiy kompetensiya

- Pedagogika va psixologiyaga doir bilimlarga ega bo‘lish;
- O‘z ustida ishslash;
- Ta’lim jarayonini rejalashtirish, baholash va qayta aloqani o‘rnata olish;

O‘quvchilar ehtiyojini anglay olishi;

- O‘quvchilarda motivasiyani shakllantirish;
- AKTni bilishi;
- Ta’lim muhitiga yangilik kiritishi;
- O‘z fanini mukammal bilishi;
- Xorijiy tillardan birini bilishi.



Markaziy Osiyoda ro‘y berayotgan ma’naviy, madaniy, dunyoqarashdagi o‘zgarishlar ayrim jihatlari bilan Sharq mamlakatlarining mustaqillikka chiqqan davrdagi holatini, G‘arbiy Ovruponing Uyg‘onish, o‘zligini anglay boshlash davrini eslatadi. Kundalik turmushdagi, tafakkurdagi an’anaviylilikning zamonaviylashuvi, demografik o‘sish, shaharlarning yiriklashuvi, texnologiyada, bank ishlarida munosabatlarning o‘zgarishi, yangi -tijoratchilar avlodining maydonga chiqishi, ishbilarmonlikning keng tarqalishi va boshqalar Uyg‘onish davrining tavsifiy chizgilariga aylangan edi. Xorijiy tillarga,

huquqshunoslikka, Vatan tarixiga qiziqishning ommaviy o'sishi maktab va tarbiya maqsadini keskin o'zgartirishning sharti bo'ldi.

 Avesto: axloqiy uchlik tamoyili. Avestoning butun axloq-odobi Gumata (Gumata) YAxshi fikr), Gukta (Gukta) YAxshi so'z), Gvarshta (Gvarshta) YAxshi ish) da ifodalanadi. Avestoda faqat bitta xalqning emas, balki Eron, Markaziy Osiyo va Ozarbjon xalqlarining mushtarak, umumiyligini qimmatga ega bo'lgan tarbiyaviy qadriyatlar aks etgan.

 Shariat: Markaziy Osiyoga islom dini bilan kirib kelgan Qur'onni Karim asosida ishlab chiqilgan, jinoiy, fuqarolik va axloq odob qoidalari majmui. SHariat diniy-huquqiy tizim sifatida XI-XII asrlarda tugal shakllangan. SHariatda barcha hatti-harakatlar dastlab ikki turga – harom va halolga ajratilgan. Keyinchalik 5 turga: farz bajarilishi qat'iy, majburiy hisoblangan axloq me'yorlari; manbud (sunnat) – majburiy emas, lekin ma'qul. Lozim hisoblangan axloqiy me'yorlar; muboh – ixtiyoriy me'yorlar; makruh – ixtiyoriy me'yorlar; harom qat'iy ravishda taqiqlangan hatti-harakatlar.

 "Munosib inson"ni etishtirish Abu Nasr Forobiy. "Bizning mavjud holatimiz tarbiya tufayli vujudga kelgan", "Tarbiya hamma narsaga qodir". Tarbiya maqsadi sifatida "har bir kishi baxtli-saodatli bo'lishi kerak", - degan g'oyani "millat baxt-saodatli bo'lishi kerak" degan g'oya bilan birlashtira oladigan vatanparvarni etishtirishda deb tushunildi va "milliy tarbiya rejası"ni ishlab chiqdi.

Tarbiyaning tabiatga mos bo'lishi haqida ta'limot YA.A.Komenskiy. Tarbiya uch bosqich – vazifadan iborat:

1) o'zini va tevarak-atrofdagi olamni bilish (aqliy); 2) o'z-o'zini boshqarish (axloqiy);



3) Xudoni tanishga intilish (diniy tarbiya). Inson tabiatning bir qismi sifatida uning eng asosiy, umumiyligini qonunlariga bo'ysunadi, deb hisoblaydi va buni injildan olingan matn parchalari bilan asoslaydi. Angliyadagi tarbiyaviy maqsad - jentelmanni tarbiyalash g'oyasi Fransiyada ham qabul qilinib, o'ziga xos tarzda amalga oshirildi. Bu quyidagicha ta'riflangan edi; "Fransiyada tarbiyadan maksad - o'zida yuksak axloqiy sifatlar, fazilatlar, ziyolilik, sog'lom mushohadalik ruhida tarbiyalanganlikni o'z Vatanida qabul kilingan xush xulqlik bilan uyg'unlashtirib, takomiliga etkazgan fransuzdir"1, Olmoniyada madaniy uyg'onish davrida amalga oshirilgan islohotlar mifik, tarbiya maqsadini belgilashga mahsuldar ta'sir ko'rsatib, Olmoniyaning milliy davlat sifatida rivojlanishiga katta turtki bo'lib xizmat qildi.

G'arbiy Ovrupoda uyg'onish davri ijtimoiy fanlar, xususan pedagogika fanining predmeti - tarbiya va uning mohiyati, maqsadi haqida dadil ilmiy fikrlar aytilganligi

bilan ham e'tiborga molik. Bu fikrlar rang-barang bo'lib, tarbiya fonemonining turli qirralarini yoritishga xizmat qiladi.

Ovrupoda Uyg'onish davri faylasuf va pedagoglarining tarbiya va uning maqsadi haqidagi g'oyalarida "milliylik", "milliy" tushunchalari tez-tez uchramasada, asl mohiyati jihatidan ular milliy asosga qurilgan edi. Chunki birinchidan, o'sha davr G'arbiy Ovrupo davlatlari - milliy davlat sifatida shakllanib bo'lgan edilar; ikkinchidan, G'arbiy Ovrupo millatlari o'z davlatlarida milliyliklariga xavf soluvchi, zarar etkazuvchi har qanday tashqi ta'sirdan holi edilar; uchinchidan, milliy g'ururni tuyg'uni so'ndiruvchi milliy mustamlakalik azobini boshdan kechirmagan edilar. Ana shuning uchun ham milliylikni tiklash sobiq mustamlaka mamlakatlarning dastlabki ma'naviy ehtiyojiga aylanishi tabiiydir. Bu ehtiyoj er yuzidagi sobiq mustamlakachi mamlakatlarga emas, balki mustamlaka - "erli" xalqlarga xos bo'lganligi ana shu qonuniyatning dalilidir.

Habashiston, Gvineya, Tanzaniya, Senegal mamlakatlaridagi milliy uyg'onish, ta'lif va tarbiyani milliy asosga qurishda qarama-qarshiliklarga ham duch kelishdi. Bu qarama-qarshiliklardan biri – tafakkuri fransuzlashgan mahalliy milliy nigilistlar. Vatan istiqboliga befarq, ovrupotsentrizm tarafdoरlarining milliy uyg'onishga qarshi turishlari tufayli sodir bo'ldi. Bu haqda Niger Prezidenti Bubu Ama 1968 yili "qora rangli fransuzlar"dan ranjib, "milliy madaniyatimizning qora tanli fransuzlar tomonidan xo'rланishi va rad etilishi bizning o'zligimizdan uyalishimizga olib keldi", - degan edi

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lif to'g'risida"gi O'RQ-637- son Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi "Pedagogik ta'lif sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4623-son Qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida
5. Avesto. Asqar Mahkam o'zbekcha tarjima. -T.:2001. 56-bet